

URBOEKOLOGIYA VA SHAHARLARNING IQLIM O'ZGARISHIGA  
TA'SIRI

Ro'zmetov D.R.,  
Xorazm Ma'mun akademiyasi

Xamroyev M.O.,  
Ahmedov G.Y.,  
Urganch davlat universiteti  
O'zbekiston

*Аннотация.* В статье описаны факторы, формирующие городскую экологию и влияние урбанизации на изменение климата. Анализируются современные проблемы городского развития, коммуникации и влияние строительства городских застроек нового типа на эко- и биотопы.

*Ключевые слова:* город, урбоэкология, урбанизация, градостроительство, изменение климата.

*Abstract.* The article describes the factors that shape urban ecology and the impact of urbanization on climate change. It analyzes modern problems of urban development, communications and the impact of new types of urban development on eco- and biotopes.

*Key words:* city, urban ecology, urbanization, urban planning, climate change.

Shaharlar kattaligi, joylashgan o'rni, tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti va boshqa omillarni birlashtirgan omillar majmuiga qarab o'ziga xos antropogen landshaftga – urboekologik tizimga ega bo'ladi. Urboekologiya shahar landshaftlari, ekotop va biotoplari, shahar (keng ma'nodagi) ijtimoiy rivojlanishi protsessida ularning turlanishini tadqiq etadi Shahar ekotizimlari shahar va shahar aglomeratsiyalari qishloq joylardan sig'imi pastligi, shu bois uning barcha mexnizmlari to'laqonli faoliyat yuritmasa tezda izdan chiqishi bilan ajralib turadi.

Shahar muhiti zich bo'lgani bois (aholi zichligi qishloq joylardan bir necha o'n marta yuqori bo'ladi), shahar kvartallari va binolarining shamol, quyoshga, suv oqimiga nisbatan joylanishi, geologiyasiga, kommunikatsiya tashkil etilishi va faoliyati kabilarga e'tibor qaratishni talab etadi.

Kichik joyda aholining zich joylashishi va ulkan resurslarni qayta ishlanishi va iste'moli shahar ekologiyasini o'ziga xos jihatidir. Shahar juda katta miqdorda energiya (elektr, issiqlik), qattiq va suyuq, sochiladigan xom ashyo va tayyor mahsulotlarni iste'mol qiladi va shunchalik chiqindilar chiqaradi. Aholi va turli mahsulotlarni ko'chirishda esa transportning har-xil turlaridan foydalaniladi. Ayni vaqtda transportning o'ziga shahar energetikasining deyarli yarmi to'g'ri keladi. 50 foiz energiyani iste'mol qiladi, shahar va seliteb hududlarni turli, asosan, uchuvchi chiqindilar ifloslaydi. Avtomobil transporti SO<sub>2</sub> va o'nlab turdagi gaz, metall birikmalarni atmosferaga chiqaradi. Avtomobil chiqargan gaz va qattiq birikmalar yuqori konsentratsiyasi yirik shaharlarda smogglar hosil qiladi.

Sanoat, ayniqsa og‘ir sanoat shahar va uning atrofidagi landshaflarni ifloslovchi ikkinchi omil sanaladi. Sanoatning ekologik “qo‘li” minglab km masoflarga tarqaladi. Shaharlar Yer yuzining atigi 2 foiz qismini egallasada ularning ekologik ta‘siri uni butunlay qamrab oladi. Ular yer iqlimi o‘zgarishiga eng katta ta‘sir ko‘rsatadilar BMT-Xabitat ma‘lumotlariiga ko‘ra 78 foiz energiyani iste‘mol qilib jami issiqxona chiqindilarning 60 foizini berishadi [3].

Shu bois ekologik, birinchi navbatda inson uchun, qulay barqaror shahar muhitini yaratish shahar transport logistikasini takomillashtirish, ekologik turlarini joriy etish dolzarb ahamiyatga ega. Shahar kattalashgan sari transport turi ko‘payib u yer osti va havoga ko‘tariladi. Transport shahar havosini ifloslagani bois shahar hududini transport turlariga qarab (markaziy hududlarida ekologik toza turli transport turlarini joriy etish) ajratish, turli estakadalar, “aqlli shahar” tizimi - kompyuter texnologiyalari orqali transport oqimini boshqarish orqali transportning SO<sub>2</sub> izini kamaytirish an‘ana tusga kirgan.

Shahar transporti ikkinchi ifloslanishni - shovqinni keltirib chiqaradi. Tovush to‘lqini ma‘lum desibellar orasida (0-70 dB) inson sog‘liqiga zarar keltirmaydi. Metro (temir yo‘l transporti) havo va suv muhiti uchun zararsiz bo‘lsa-da, shovqin (100 dB) tarafdin inson sog‘liqiga to‘g‘ri kelmaydi. Shu bois metro yer ostidan chiqqan kvartallar qurilishida buni e‘tiborga olish lozim. Ayni vaqtda shaharda transportdan holi hududlarni tashkil etish, elektromobil, velosiped, skuter, giroskuterlar harakatlanish zonalarini ko‘paytirish lozim.

Yirik shaharlar butun boshli mintaqalar elektr va issiqlik energiyasini iste‘mol qiladi. Masalan Toshkent shahri nafaqat Toshkent IEM i, balki Chirchiq – Bo‘zsuv GES lari tizimi va boshqa IES lardan ham energiya oladi. Yangi industrial (rangli metallurgiya va u bilan bog‘liq sanoat) shaharlarining ayrimlarini hisobga olmaganda, yirik shaharlar IES, kamdan-kam holarda AES lar orqali elektr energiyasi bilan ta‘minlanadi. Mamlakatlarning barchasi ham nisbatan ekologik toza tabiiy gaz bilan yaxshi ta‘minlanmagani bois IES larda ko‘p hollarda ko‘mir, mazut kabi ekologik xavfli yoqilg‘ilarni ishlatilmoqda. Ular ayrim hollarda shahar va atrof-tevarak havosini ifloslovchi asosiy manbaga aylanadi.

Yuqoridagi holat XX asrda AQSh va Yevropaning aksar shaharlarida tez-tez takroranib turgan. Hatto ayrim industrial shaharlarda smogg aholi o‘rtasida nafas yo‘llarining zaralanishi va o‘lim holatlarini ham keltirib chiqargan. Shu bois o‘tgan asr 60-70 yillaridan aynan Yevropa va AQSh da ekologik tamoyillar ilgari surilgani, BMT ning rivojlanish dasturlariga ekologik barqaror taraqqiyot konsepsiyalari kiritilgani bejiz emas. Hozirgi kunda Yevropada 2050 yillarga borib uglerod emissiyasini hozirgi kunga nisbatan 2-3 marta pasaytirish, tabiiy gaz, biogaz, vodorod yoqilg‘isidan foydalanishni ko‘paytirish hisobiga IES larda ko‘mir va mazutni yoqish hamda AES lardan butunlay yoki bosqichma-bosqich voz kechish rejalari ishlab chiqilgan. Avtomobil transportini ham butunlay elektr va ekologik xavfi past vodorod yoqilg‘isiga o‘tkazish ko‘zlangan va ularni sotib olish rag‘batlantirilmoqda. Uylarni

muqobil energiya manbalaridan foydalanib mustaqil ta'minotga o'tayotganlini bu boradagi amaliyotlardan sanaladi. Ammo, ta'kidlash lozimki, AES lardan voz kechilishi noto'g'ri siyosatdir. Chunki, avriyaviy holatlarni hisobga olmaganda joylashgan hududini ifloslamaydi.

Shaharlarda aholi mujassamlashuvi yuqori bo'lgani bois tabiiy ravishda binolar vertikal rivojlanadi, binolar bir necha yuzlab etajlarni tashkil etadi. Bunday binolar asosi gruntga bir necha o'nlab metrga kirib boradi. Uning asosini barpo etish uchun qazilgan kotlovanlar tabiiy ravishda grunt suvlari, tuproqda yashovchi organizmlar, o'simlik qoplami va tabiiyki landshaft (joy, fatsiya) bir butunligini buzadi. Ayni paytda, ichimlik suvi cheklangan yoki yer ostidan olinishi qulay bo'lgan joylarda bosimli suvlardan ko'p miqdorda foydalanishi hudud tektonikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hudud seymik jihatdan faollashadi, yer cho'kadi, binolar avariyaaviy holatga kelib qoladi, ijtimoiy foyda bilan ekologiya o'rtasida muvozanat salbiy tarafga o'zgaradi. Transport, industrial faoliyat atrof-muhitga qo'shimcha vibratsiya berish orqali, gruntni turli yo'nalishda siljishi, cho'kishi, hayot faoliyati uchun ushbu vibratsiya to'g'ri kelmaydigan hayvonot olami ekologik zanjiri buzilishiga olib keladi.

BMT tarafidan e'lon qilingan "Ming yillik taraqqiyot dasturi" (2000 y.), "Taraqqiyot dastur" lari bandlarida ekologik baraqaror taraqqiyot masalalari ham o'rin olgan. Xususan ushbu bandlarning kichik bandlarida xarob kulbalarda yashovchi shahar aholisi sharoitini yaxshilash, ijtimoiy rivojlanishni o'z ichiga olgan bandlarda esa aholi yashash joylari va salomatligini yaxshilashning dolzarb yo'nalishlari o'rin olgan [2]. "Ming yillik taraqqiyot dasturida" qator masalalarni 2015 yilgacha bajarish vazifa qilib qo'yilgan bo'lsa-da ular hozirda ham to'liq bajarilmagan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колясников В. А. На пути к экологической гармонизации городов // Изв. вузов. Стр-во. – 1997. – № 10. – С. 97.
2. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti prinsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta'minlanishi, amaliy qo'llanma – Toshkent: O'zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, 2011 y., 122 b.
3. <https://www.un.org/ru/climatechange/climate-solutions/cities-pollution>